



Xalq soʻzi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 14-avgust, № 165 (9336)

Juma

Saytimga oʻtish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



MUHIM TADBIRGA JIDDIY TAYYORGARLIK

13-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevga tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqotga tayyorgarlikning borishi yuzasidan axborot berildi.

Mamlakatimizda anʼanaga aylangan ushbu muloqot tadbirkorlarni oʻylantirayotgan dolzarb masalalarni bevosita oʻrganish, ularga amaliy yechim topish va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Boʻlajak oltinchi ochiq muloqotga puxta tayyorgarlik koʻrish maqsadida 15-maydan boshlab 50 dan ortiq vazirlik va idora vakillaridan iborat respublika shtabi tashkil etilgan. Shtab 24/7 tartibda uzluksiz faoliyat yuritmoqda.

Koll-markaz va rasmiy botlar orqali tadbirkorlardan 6 mingga yaqin murojaatlar kelib tushgan. Ularning 4,2 mingdan ziyodi ijobiy hal etildi, 1,8 mingga yaqinini koʻrib chiqish davom etmoqda.

Tayyorgarlik doirasida masʼul tashkilotlar tomonidan 750 dan ziyod uchrashuvlar oʻtkazilib, ularda 8,8 mingdan ortiq tadbirkorlar ishtirok etdi va 3,5 mingdan ziyod taklif hamda masalalar bildirildi.

Biznes-ombudsman va Savdo-sanoat palatasi tomonidan tashkil etilgan 130 dan ortiq uchrashuvlarda esa 5,7 mingdan ziyod tadbirkorlar qatnashib, 1,5 mingga yaqin masalalarni oʻrtaga tashladi. Aniqlangan muammolarni tubdan hal qilish va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish boʻyicha tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda takliflar ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga, respublika boʻyicha 5 ming 72 nafar tadbirkor oʻrtasida soʻrovnomma oʻtkazildi. U orqali korxonalar samaradorligi, investitsiya va infratuzilma taʼminoti, soliq maʼmurchiligi, tashqi savdo hamda sud-huquq sohasidagi masalalar oʻrganildi.

Soʻrov ishtirokchilarining 93 foizini mahalliy xususiy korxonalar tashkil etdi. Unda savdo, xizmat koʻrsatish, sanoat, qurilish va qishloq xoʻjaligi sohalari qamrab olindi.

Tahillilar korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish va tannarxni pasaytirish boʻyicha hali katta

imkoniyatlar borligini koʻrsatdi. Raqamli platformalar, sunʼiy intellekt, energotekjamkor texnologiyalar, yangi mahsulot va ishlab chiqarish usullarini joriy etgan korxonalarda sotuv, raqobatbardoshlik, ish haqi va investitsiya koʻrsatkichlari yuqori boʻlmoqda.

Xususan, kamida uchta samaradorlik chorasini joriy etgan korxonalarda tannarxni pasaytirish ehtimoli 4,1 barobar, ish haqini yuqori surʼatda oshirish imkoniyati 2,1 barobar koʻp. Biroq bunday choralarini uch va undan ortiq yoʻnalishda qoʻllayotgan korxonalar ulushi atigi 11,6 foizni tashkil etgan. 28,5 foiz korxona esa bu borada birotta ham chora koʻrmagan.

Korxonalarining 51 foizida soʻnggi davrda yangi mahsulot, xizmat yoki innovatsiya joriy etilmagan, modernizatsiya ishlari amalga oshirilmagan. 40 foiz korxona oxirgi bir yilda umuman investitsiya kiritmagan, 29 foizida kelgusi bir yil uchun ham bunday reja mavjud

emas. Kredit foizlarining yuqoriligi, garovni past baholash, hujjatlarining koʻpligi va kredit rasmiylashtirish muddatlarining uzoqligi asosiy toʻsiqlar sifatida koʻrsatilgan.

Soʻrov natijalariga koʻra, korxonalarining 38 foizi tannarxni pasaytirish choralarini koʻrmagan. 53 foizida mahsulot va xizmatlar tannarxi oshgan. Bunga, asosan, xomashyo narxi, energiya va logistika xarajatlarning koʻpayishi sabab boʻlmoqda. Shuningdek, 43 foiz korxona energiya tejash choralarini koʻrmagan, 49 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanmaydi.

Infratuzilma taʼminoti ham tadbirkorlarni qiynayotgan asosiy masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Soʻrovnomada tadbirkorlar tez-tez uzilishlar, kuchlanish va bosimning pastligi, limit hamda tariflar bilan bogʻliq masalalarni qayd etgan.

Soʻrov ishtirokchilari soliq maʼmurchiligi boʻyicha muhim islohotlar amalga oshirilganini eʼtirof etgan holda,

tekshiruvlar oʻtkazish va qoʻshilgan qiymat soligʻini qaytarish bilan bogʻliq jarayonlarda mavjud muammolarni koʻrsatib oʻtgan. Shu bilan birga, tadbirkorlarning 94 foizi barqarorlik reytingi amaliyotining ular faoliyatiga taʼsirini yuqori baholagan.

Soʻrovda qatnashgan korxonalarining 22,3 foizi tashqi savdo bilan shugʻullanadi. Xorijlik mijoz topish, mahsulotni sertifikatlash, logistika, moliyaviy vositalar, bojxona jarayonlari, bozor haqida maʼlumot va marketing koʻnikmalarining yetishmasligi eksportdagi asosiy toʻsiqlar sifatida koʻrsatilgan.

Sud-huquq sohasida malakali yuridik yordam olish imkoniyati va davlat xaridlari shaffofligi ijobiy baholangan. Ayni paytda tadbirkorlarning 73 foizi majburiy ijrodagi byurokratik jarayonlar biznesga salbiy taʼsir koʻrsatayotganini bildirgan.

(Davomi 2-betda).



HUDUDLARDA YOQILGʻI-ENERGETIKA SOHASIDAGI ISHLARNI TIZIMLI TASHKIL ETISH VAZIFALARI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga Yangiyoʻl tajribasi asosida hududlarda isteʼmolchilarni yoqilgʻi-energetika resurslari bilan barqaror taʼminlash, energiya samaradorligini oshirish, tarmoqlardagi yoʻqotishlar va debitorlik qarzdorlikni keskin kamaytirish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Avvalroq ushbu tajriba asosida har bir hududdan bittadan tanlab olingan 14 ta tumanda namunaviy tizim yaratish vazifasi qoʻyilgan edi. Shu maqsadda ishlar mahallabay tashkil etilib, energetika sohasidagi muammolarni joyiga chiqqan holda oʻrganish va manzilli choralar koʻrish yoʻlga qoʻyildi.

Bu 916 ta mahalla, 832 mingta xonadon, 49 mingta tadbirkorlik subyekti va 2,2 mingdan ortiq ijtimoiy soha obyektlarini qamrab oldi. Har bir mahalla boʻyicha energetik pasport va energiya resurslariga talab balansi shakllantirildi.

Natijada ilk bor mahallalar kesimida mavjud talab va imkoniyat oʻrtasidagi tafovut aniq hisob-kitob qilindi. Jumladan, 265 ta mahallada 60 megavatt elektr quvvati, 42 ta mahallada esa yiliga 47 million kub metr tabiiy gaz taqchilligi borligi aniqlandi. Ayni paytda 207 ta mahallada quvvat zaxirasi mavjud.

Bunday yondashuv kelgusida energiya resurslariga boʻlgan talabni oldindan hisoblash va zarur infratuzilmani oʻz vaqtida tayyorlash imkonini beradi.

Shu asosda elektr va gaz tarmoqlarini

yangilash ishlari jadallashtirildi. 14 ta tumanda 5 ming 695 ta transformator, 6,9 ming kilometr elektr tarmogʻi, 242 kilometr gaz tarmogʻi hamda 404 ta gaz taqsimlash qurilmasi taʼmirlalab ekani aniqlandi. Ularning texnik holatini yaxshilab, "yashil" toifaga oʻtkazish ishlari boshlandi.

Hozirga qadar 441 ta transformator, 1 ming 134 kilometr elektr va 88 kilometr gaz tarmogʻi, shuningdek, 92 ta gaz taqsimlash qurilmasi taʼmirlandi.

Avvalgi yillarda investitsiya dasturlari

doirasida boshlangan, biroq yakuniga yetkazilmagan obyektlarning bir qismi ham foydalanishga topshirildi.

Hisob-kitoblarga koʻra, kelgusi besh yilda mazkur tumanlarda energiya resurslariga talab 49 foizga oshishi kutilmoqda. Shu bois istiqbolida ishga tushiriladigan loyihalarni hisobga olgan holda aholi va tadbirkorlarni energiya resurslari bilan ishonchli hamda barqaror taʼminlashga qaratilgan besh yillik dastur ishlab chiqildi.

(Davomi 2-betda).



Sarhisob

MUNOSIB MEHNAT TAMOYILLARINI JORIY ETISH YOʻLIDA



norasmiy bandlikni qisqartirish, mehnat muhofazasi hamda dual taʼlimni rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihalari ishlab chiqildi.

Kecha Oliy Majlis Senatida boʻlib oʻtgan Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari boʻyicha milliy komissiya joriy navbatdagi yigʻilishida ushbu masalalar atroflicha koʻrib chiqildi. Uni Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi, milliy komissiya raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yigʻilishda milliy komissiya, uning huzuridagi kichik komissiyalar hamda hududiy komissiyalarning joriy yil birinchi yarim yilligi davomida amalga oshirgan ishlari, erishilgan natijalar va mavjud muammolar muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, hisobot davrida munosib mehnatni taʼminlash, mehnat huquqlarini himoyalash, odam savdosining

oldini olish hamda xalqaro mehnat standartlarini milliy amaliyotga joriy etish boʻyicha qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, odam savdosidan jabrlangan shaxslarni aniqlash, ularga kompleks ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish va jamiyatga integratsiya qilish tizimini takomillashtirishga ham alohida eʼtibor qaratilgan.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

DEPUTATLAR MASʼULIYATI VA FAOLIGI OSHMOQDA



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "Deputatlar korpusining ijtimoiy masalalarni hal etishdagi tashabbuskorligini qoʻllab-quvvatlashning yangicha tizimi" mavzuida seminar boʻlib oʻtdi.

Unda dastlab davlatimiz rahbarining shu yil 29-iyundagi "Tashabbusli byudjet jarayonlari doirasida mahallalardagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda xalq vakillari va jamoatchilik uchun qoʻshimcha imkoniyatlarni yaratish toʻgʻrisida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi boʻyicha deputatlar tomonidan joylarda amalga oshiriladigan ishlarga eʼtibor qaratildi.

Shuningdek, saylov okruglaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni

hal etishda deputatlarning ishtirokini yangi bosqichga olib chiqish, yetarli ovoz oloilmagan, lekin aholi uchun muhim ahamiyatga ega loyihalarni tanlab olish hamda gʻolib deb eʼlon qilish borasida joriy etilayotgan yangi mexanizmlar atroflicha muhokamaga tortildi.

Taʼkidlanganidek, 2026-yilda ilk bor amaliyotga joriy etilgan "Deputat tashabbusi" loyihasi oʻzini

toʻliq oqladi. Uning doirasida ilgari gʻolib boʻlolmagan 149 ta loyiha qoʻshimcha ravishda gʻolib deb topilib, ularga 239 milliard soʻm (har biriga oʻrtacha 1,6 milliard soʻm atrofida) yoʻnaltirildi. Bu tashabbus sababli 39 ta mahalla ilk bor gʻolib boʻlgani, ulardan 29 tasi "ogʻir toifa"dagi mahallalar tizimiga kirishi mazkur tizimda adolat va manzillilik tamoyili roʻyobga chiqayotgani sifatida eʼtirof etildi.



YUTUQLARIMIZ KOʻZGUSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining tashabbusi bilan Adliya vazirligi, Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti hamda Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamkorligida "Mustaqil Oʻzbekiston – 35 yillik taraqqiyot yoʻli: islohotlar, natijalar va istiqbollar" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya oʻtkaziladi.

Fotoekspozitsiya

Mazkur konferensiya doirasida Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot yoʻli va erishgan yutuqlariga bagʻishlangan fotoekspozitsiya tashkil etildi. Unda Qonunchilik palatasi deputatlari, shuningdek, Belarus, Gruziya, Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya va Qirgʻiziston parlamentlari aʼzolari qatnashdi.

Dastlab mehmonlarga Oʻzbekiston hududidagi islomgacha boʻlgan davr tarixi, islom sivilizatsiyasining shakllanishi va taraqqiyoti, buyuk allomalar merosi, milliy madaniy boyliklar hamda mamlakatning ilmiy-maʼrifiy salohiyati haqida atroflicha maʼlumot berildi.

Ishirokchilar Prezidentimiz tashabbusi bilan bunyod etilgan Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugungi kunda nafaqat meʼmoriy jihatdan noyob inshoot, balki Sharq va Gʻarb

sivilizatsiyalarini bogʻlovchi ramziy koʻpriq sifatida yuksak baholanayotganini taʼkidladi.

Davlatimiz rahbarining islom sivilizatsiyasi merosini chuqur oʻrganish va uni jahon miqyosida targʻib qilishga qaratilgan oqilona siyosati alohida eʼtirof etildi. Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi maʼnaviy-maʼrifiy sohada keng koʻlamli faoliyat uchun mustahkam poydevor boʻlib xizmat qilishi bildirildi.

Markazga tashrif buyurganlar bu yerda Oʻzbekiston hududida shakllangan yuksak sivilizatsiya, ilm-fan va maʼrifat anʼanalari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega boʻldi. Ayniqsa, nodir qoʻlyozmalar, tarixiy manbalar, noyob eksponatlar hamda zamonaviy multimedia vositalari orqali boy tariximizning turli davrlari bir butun maʼrifiy manzara sifatida namoyon etilgani ularda katta qiziqish uygʻotdi.



Oʻzbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining
F A R M O N I

TADBIRKORLAR KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TOʻGʻRISIDA

Yangi Oʻzbekistonda tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, mamlakatimiz taraqqiyoti va eksport salohiyatini yuksaltirish, milliy iqtisodiyotimizning barqaror oʻsishini taʼminlash boʻyicha salmoqli natijalarga erishib kelayotgani, oʻzining tashabbuskorligi, bilim va tajribasini namoyon etib, investitsiyalarni jalb qilish, import oʻrnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy xizmatlar koʻlamini yanada kengaytirish, yangi ish oʻrinlari va daromad manbalarini yaratish orqali aholi farovonligini oshirish yoʻlida alohida jonbozlik koʻrsatayotgani, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Oʻzbekiston Respublikasida

xizmat koʻrsatgan tadbirkor” faxriy unvoni bilan

Boitayev Odiljon Olimjonovich – Samarqand shahridagi “Azia metall prof” masʼuliyati cheklangan jamiyatining rivojlantirish va investitsiya masalalari boʻyicha direktori, Samarqand viloyati

“Oʻzbekiston Respublikasida

xizmat koʻrsatgan sanoat xodimi”

faxriy unvoni bilan

Xamrayev Baxtiyor Djabbarovich – Navoiy shahridagi “Gidro stanko servis” masʼuliyati cheklangan jamiyati direktori, Navoiy viloyati

“Oʻzbekiston Respublikasida

xizmat koʻrsatgan quruvchi”

faxriy unvoni bilan

Isakov Muhsinjon Qosimjonovich – Margʻilon shahridagi “426-xoʻjaliklararo ixtisoslashgan koʻchma mexanizmlar kolonnasi” masʼuliyati cheklangan jamiyati bosh direktori, Fargʻona viloyati

Babaxanov Yorqin Xaitmuradovich – Boʻstonliq tumanidagi “Central Asian constriction” fermer xoʻjaligi boshligʻi, Jizzax viloyati

“Oʻzbekiston Respublikasida xizmat

koʻrsatgan qishloq xoʻjaligi xodimi”

faxriy unvoni bilan

Axmedov Baxtiyor Ergashevich – Baxmal tumanidagi “Qoʻshchinor mevasi” fermer xoʻjaligi boshligʻi, Jizzax viloyati

(Davomi 2-betda).



Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidentining
F A R M O Y I S H I

“FAOL TADBIRKOR” KOʻKRAK NISHONI BILAN TAQDIRLASH TOʻGʻRISIDA

Milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, yurtimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, Yangi Oʻzbekistonda tadbirkorlik sohasida ilgʻor tajriba va anʼanalar maktabini yaratish borasida alohida ibrat va namuna koʻrsatib kelayotgani, oʻzining izlanuvchanligi, kreativ gʻoya va tashabbuslari bilan samarali faoliyat olib borib, mamlakatimizning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, oʻzining bandligi va farovonligini taʼminlashga munosib hissa qoʻshayotgani, biznesda erishayotgan salmoqli natijalari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar **“Faol tadbirkor” koʻkrak nishoni** bilan taqdirlansin:

Beginanova Salima Rajatdinovna – Boʻzatov tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi

Ilyasova Elvira Askarbayevna – “Hunarmand” uyushmasining Qoʻngʻiroʻt tumani boʻlimi boshligʻi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi

Kalnazarov Baxadur Ibanovich – Qoʻngʻiroʻt tumanidagi “Ustyurt sodium sulfate” masʼuliyati cheklangan jamiyati direktori, Qoraqalpogʻiston Respublikasi

Masharipov Azat Bazarbayevich – Beruniy tumanidagi “Usta Bozorbov” xususiy korxonasi taʼsischisi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi

Mustafayev Azat Yesbosinovich – Taxiotosh tumanidagi “Atiyaj gulzar” masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi

Saburov Dilshod Kabuljanovich – Toʻrtkoʻl tumanidagi “Baraka tekstil group” masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi

Shimbergenov Azat Adilbayevich – Nukus shahridagi “Nukus evro stroy” masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi

Dusmuratov Mirzadiyor Mirzagayratovich – Andijon tumanidagi “Makon Mirzo” masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari, Andijon viloyati

Raximov Yunusjon Nematovich – Baliqchi tumanidagi “Sokin savdo servis” masʼuliyati cheklangan jamiyati taʼsischisi, Andijon viloyati

Raxmatova Buzaynab Mirsaitovna – Oltinkoʻl tumanidagi “Pergament Snegurochka” masʼuliyati cheklangan jamiyati taʼsischisi, Andijon viloyati

Sayfutdinova Shaxnoza Alisher qizi – Marhamat tumanidagi “XXI asr akademiyasi” nodavlat taʼlim muassasasi rahbari, Andijon viloyati

Tursunov Jomoldin Ostanakulovich – Xoʻjaobod tumanidagi “Everest MMM” masʼuliyati cheklangan jamiyati taʼsischisi, Andijon viloyati

(Davomi 2-betda).



MUNOSIB MEHNAT TAMOYILLARINI JORIY ETISH YOʻLIDA



Mehnat qonunchiligiga rioya etilishini taʼminlash, majburiy va bolalar mehnatining oldini olish, xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, fermerlar huquqlarini himoya qilish hamda qishloq xoʻjaligida bozor mexanizmlarini keng joriy etish boʻyicha tizimli choralar koʻrilgan.

Qishloq xoʻjaligida fermerlar huquqlarini himoya qilish, yer munosabatlari takomillashtirish va paxta-toʻqimachilik klasterlari hamda fermerlar oʻrtasidagi hisob-kitoblarni tartibga solish boʻyicha koʻrilgan tizimli choralar natijasida fermer xoʻjaliklari foydasiga qarzdorliklar undirib berilishi taʼminlangan.

Oʻtgan davrda ishlab chiqarish tarmoqlarida xalqaro mehnat va texnik standartlarni joriy etish

ishlari ham faollashtirildi. Bugungi kunda 286 ta korxona "ISO", "Oeko-Tex", "Sedex", "Better Work", "BSCI", "GOTS", "BCI" kabi dunyoviy standartlarga ega.

Joriy yilning 8 – 11-iyun kunlari Jeneva shahrida boʻlib oʻtgan Xalqaro mehnat tashkilotining 114-sessiyasida Oʻzbekiston delegatsiyasi qatnashdi. Unda mamlakatimizda munosib ish va kasb tamoyillarini taʼminlash, majburiy mehnatni bartaraf qilish va mehnat munosabatlari xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasidagi islohotlar taqdim etildi.

Shuningdek, sohadagi ayrim kamchiliklar ham tanqidiy muhokama qilinib, masʼul vazirlik va idoralar hamda Toshkent shahri, Fargʻona

va Samarqand viloyatlari hududiy komissiyalari rahbarlarining hisobotlari eshittildi.

Yigʻilish yakunida ish joylarida xalqaro standartlarni keng joriy etish, munosib mehnat tamoyillarini taʼminlashga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar rejasini hamda Xalqaro mehnat tashkilotining "Alliance 8.7" tashabbusi doirasida Oʻzbekistonning 2026 – 2029-yillarga moʻljallangan "Yoʻl xaritasi" loyihalari koʻrib chiqilib, ijroga qaratildi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish, sohadagi ishlarni yanada tizimli tashkil etish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish boʻyicha masʼul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

"Xalq soʻzi".

AHOLI FAROVONLIGINI TAʼMINLASH – USTUVOR YOʻNALISH

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish faqat ijtimoiy yordam koʻrsatish bilan cheklanib qolmasdan, aholi uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, bandlikni taʼminlash va inson kapitalini rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Davra suhbatlari

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi tomonidan "Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligi" doirasida "Kambagʻallikni qisqartirish va aholining ijtimoiy farovonligini taʼminlashning ustuvor yoʻnalishlari" mavzuida davra suhbatlari oʻtkazildi.

Unda senatorlar, masʼul vazirlik va idoralar vakillari, mahalliy Kengash deputatlari kambagʻallikni qisqartirish, aholi farovonligini oshirish borasida belgilangan vazifalar ijrosi hamda ushbu yoʻnalishda parlament nazoratini kuchaytirish masalalarini muhokama qildi.

Taʼkidlanganidek, joylarda muhtoj oilalarni aniqlash va ularga koʻmak koʻrsatish tizimi ham takomillashtirilmoqda. Xususan, ehtiyojmand oilalar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni raqamlashtirish orqali ularning ijtimoiy holatini mintazam kuzatib borish,

koʻrsatilayotgan yordamning manzilli va samarali boʻlishini taʼminlashga eʼtibor qaratilmoqda.

Shuningdek, mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli hamkorligida xonadonlarning ichki imkoniyatlari, jumladan, tomorqa xoʻjaligi, kasanachilik hamda hunarmandchilik salohiyati oʻrganilib, aholini daromadli mehnatga jalb etish, ularga grant va imtiyozli kreditlar ajratish choralari koʻrilmoqda.

Davra suhbatida mazkur yoʻnalishda amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda mavjud muammolar, ularning yechimlari va parlament nazoratini yanada kuchaytirish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar oʻzlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi hamda kambagʻallikni qisqartirish va aholi ijtimoiy farovonligini taʼminlash borasida amaliy takliflarini bildirdi.

"Xalq soʻzi".

Xalq qabulxonalari:

MASALALARGA QONUNIY VA SAMARALI YECHIM

Prezident Xalq qabulxonalarida hech bir fuqaroning murojaati rad etilmaydi. Aksincha, odamlarga murojaat qilishning eng qulay va oson usullari tavsiya etiladi, oʻzlarini qiynayotgan masalalarni tegishli tashkilot mutasaddisiga xotirjam yetkazishi uchun sharoit yaratib beriladi. Muammolari tezkor va samarali hal boʻlishiga koʻmaklashadi.

Tadbir

Hududlardagi ana shunday ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Prezident Xalq qabulxonasi tomonidan tashkil etilgan mediatorda OAV xodimlari Toshkent viloyati Xalq qabulxonasida yaratilgan sharoit va imkoniyatlar bilan batafsil tanishdi.

Tadbirda masʼullarning qayd etishicha, har bir murojaat yuzasidan uning egasiga holati, kim tomonidan koʻrib chiqilayotgani hamda natijasi haqida tez orada SMS-xabarnoma yuborish xizmati ishga tushiriladi. Bu esa murojaatlarni fuqaroning oʻzi kuzatib borishiga imkon yaratadi.

Bu maskan oʻz nomi bilan chindan ham xalq dardini yengillashtiradigan idoraga aylanganini koʻrish mumkin. Butun viloyatdagi vaziyatlarni onlayn kuzatib borish, joylardan – mahallalardan yoʻllangan shoshilinch murojaatlarga tezkor javob berish hamda mana shunday ishlarning bari Xalq qabulxonasi tomonidan muvofiqlashtirib borilishini taʼminlash maqsadida viloyat vaziyatlar markazi ham aynan shu yerda tashkil etilgani ahamiyatlidir.

– Elektron navbat olishga qiyналgan fuqarolar shu yerning oʻzida Xalq qabulxonasi mutaxassisiga uchraydi, – deydi Toshkent viloyati Xalq qabulxonasi referenti Dostonbek Abdukurimov. – Masʼul xodim

murojaat mazmuni bilan tanishib, fuqaroning masalasi boʻyicha elektron navbat olib beradi. Shundan soʻng fuqaro kutish xonasiga oʻtadi. Navbat kelganini SI aytib, mutaxassisga yoʻnaltiradi. Agar-da fuqaro viloyat hokimi yoki oʻrinbosarlarining qabuliga kiradigan boʻlsa, shu yerning oʻzida infokios k orqali shaxsiy qabulga yoziladi.

Masʼullarning taʼkidlashicha, joriy yilda Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalariga yoʻllangan murojaatlarning ortishi aholi faolligidan koʻra, ayrim sohalarida muammolarning haligacha tizimli hal etilmayotganini koʻrsatmoqda. Ayniqsa, takroriy murojaatlarning 48,9 mingtaga yetgani fuqaroning birinchi murojaatidayoq aniq, qonuniy va samarali yechim berish hamda iro ustidan nazoratni kuchaytirish zarurligini koʻrsatadi. Xalq qabulxonalarining asosiy vazifasi ham murojaatni qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, uning sababini aniqlash va takroriy murojaatga ehtiyoj qoldirmaydigan tizimli yechimni taʼminlashdan iborat. Toshkent viloyati Xalq qabulxonasida ham murojaatlar bilan ishlashda ana shu jihatlariga eʼtibor qaratilmoqda.

Ulugʻbek ROʻZIMATOV ("Xalq soʻzi").

Mustaqilligimizning 35 yilligiga

Tashqi siyosat:

IZLANISH, TAJRIBA, SINOV VA YANGILANISHLAR DAVRI

Istiqlolning 35 yilligi arafasida ortga nazar tashlab, har bir sohada erishilgan yutuqlarni sarhisob qilar ekanmiz, Oʻzbekistonning tashqi siyosatda bosib oʻtgan sharaffi yoʻli ham koʻz oldimizda namoyon boʻladi. Oʻtgan davr mobaynida mamlakatimiz dunyo hamjamiyati bilan teng va oʻzaro manfaatli munosabatlarni yoʻlga qoʻyib, xalqaro maydonda oʻzining munosib oʻrnini egalladi.

Albatta, mazkur jarayon oʻz-oʻzidan amalga oshgani yoʻq. Bu borada ham koʻplab sinovlar, murakkablikni yuzaga keldi. Mamlakatimiz tashqi siyosatining shakllanishi, rivojlanishi ham maʼlum bir bosqichlardan oʻtdi.

1991 – 2000-yillarni qamrab oluvchi dastlabki bosqichni haqli ravishda mustaqillikning poydevori qoʻyilgan yillar deyish mumkin. Chunki bu davr Oʻzbekiston uchun, avvalo, milliy suverenitetni mustahkamlash va dunyoga mustaqil davlat sifatida tanilish pallasini boʻldi. Yangi davlat jahon siyosiy xaritasida oʻz oʻrnini topish, xalqaro huquqning toʻlaqonli subyekti sifatida eʼtirof etilish va xorijiy davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni yoʻlga qoʻyish kabi ulkan vazifalarni hal qildi.

Qisqa muddatda Oʻzbekiston BMT va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarga aʼzo boʻldi, koʻplab davlatlar bilan diplomatik munosabatlar oʻrnatdi. Xorijiy mamlakatlarda Oʻzbekistonning diplomatik vakolatxonalarini ochildi, poytaxtimizda esa turli davlatlarning elchixonalari faoliyat yuritga boshladi. Kechagina mustaqillikka erishgan mamlakat jahon hamjamiyati bilan teng muloqot qiladigan davlat sifatida shakllandi.

Bundan tashqari, bu davrda tashqi siyosatning milliy asoslari ham yaratildi. Oʻzbekiston xorijiy tajribani oʻrgangan holda, oʻz milliy manfaatlari va davlatchilik xususiyatlariga mos yoʻlni tanladi. Suverenitet, hududiy yaxlitlik, milliy xavfsizlik, tinchliksevarlik, davlatlarining ichki ishlariga aralashmaslik va oʻzaro manfaatli hamkorlik kabi tamoyillar tashqi siyosatimizning muhim ustunlariga aylandi.

Ikkinchi bosqich – xavfsizlik va geosiyosiy muvozanat davri. 2000 – 2010-yillar tashqi siyosatimiz uchun murakkab geosiyosiy jarayonlar fonida kechdi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari keskinlashib, terrorizm, ekstremizm va Afgʻonistondagi beqarorlik mintaga hayotiga jiddiy tahdid sola boshladi. 1999-yilgi Toshkent voqealari va keyingi jarayonlar mamlakat tashqi siyosatida kuchayishi masalasiga eʼtiborni yanada kuchaytirdi.

Bu davrda Oʻzbekiston yirik geosiyosiy kuch markazlari – Rossiya, AQSh va Xitoy bilan munosabatlarda oʻz milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda muvozanatni saqlashga intildi. 2001-yildan keyin Afgʻonistondagi vaziyat va xalqaro aksiterror operatsiyalari mintaqadagi siyosiy muhitga katta taʼsir koʻrsatdi.

2005-yildagi Andijon voqealaridan keyin Gʻarb davlatlari bilan munosabatlarda yuzaga kelgan sovuqlik esa tashqi siyosatda yangi yondashuvlarni taqozo etdi. Bu yillar Oʻzbekiston diplomatiyasi uchun



geosiyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilish, milliy xavfsizlikni birinchi oʻringa qoʻyish va tashqi munosabatlarda ehtiyojkorlikni kuchaytirish davri boʻldi.

Uchinchi bosqich – ehtiyojkorlik va konservativ tashqi siyosat davri. 2010 – 2016-yillarda mamlakat tashqi siyosatida yanada ehtiyojkor va konservativ yondashuv ustunlik qildi. Oʻzbekistonning tashqi siyosiy faoliyatida aniq qoidalar belgilab olindi. 2012-yilda qabul qilingan Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi mamlakatning harbiy-siyosiy bloklariga qoʻshilmaslik, hududida xorijiy harbiy bazalar joylashtirilishiga yoʻl qoʻymasligi kabi tamoyillarni mustahkamladi.

Mazkur davrni tashqi siyosatda shartli ravishda "ehtiyojkorlik davri" deb atash mumkin. Mamlakat tashqi dunyo bilan munosabatlarni saqlab qolgan boʻlsa-da, tashqi siyosiy aloqalarda ehtiyojkorlik ustuvor ahamiyat kasb etdi. Bu esa keyingi bosqichda tashqi siyosatni qayta koʻrib chiqish va yangi yondashuvlarga ehtiyojni kuchaytirdi.

Bugun siz bilan biz guvohi boʻlayotganimiz toʻrtinchi bosqich – Yangi Oʻzbekistonning yangi diplomatiya davri sifatida tarixga muhrlandi. 2016-yildan keyin Oʻzbekiston tashqi siyosatida ochiqlik, pragmatizm, oʻzaro manfaat va yaxshi qoʻshnichilik tamoyillari ustuvor yoʻnalishga aylangan mutlaqo yangi, avvalgilarga oʻxshamagan sahifa ochildi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni yaxshilash va mintaqada oʻzaro ishonch muhitini shakllantirish tashqi siyosatimizning eng muhim yoʻnalishiga aylandi.

Qoʻshni davlatlar bilan yillar davomida yechimini kutib turgan chegara, transport, savdo, suv va boshqa masalalarni muzokaralar orqali hal etishga alohida eʼtibor qaratildi. Ilgari aholi va tadbirkorlar uchun jiddiy toʻsiq boʻlgan chegaradan oʻtib-qaytish jarayonlari yengillashti, transport hamda savdo aloqalari tiklandi. Eng muhimi, xalqaro oʻrtasidagi azaliy qardoshlik va yaqinlik yanada mustahkamlandi.

Oʻzbekistonning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosiy yondashuvi mintaq davlatlari oʻrtasidagi munosabatlarga ham yangi ruh olib kirdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari yoʻlga qoʻyildi. Ushbu muloqot maydoni davlatlar oʻrtasidagi ishonchni mustahkamlash,

umumiy muammolarni birgalikda muhokama qilish va mintaqa kelajagiga daxldor masalalar boʻyicha umumiy yondashuvlarni shakllantirish uchun muhim platformaga aylandi.

Natijada Markaziy Osiyoda bir vaqtlar murakkab va bahsli masala sifatida qaralgan qator muammolarni tinch, siyosiy va diplomatik yoʻl bilan hal qilish uchun yangi imkoniyatlar paydo boʻldi. Suv-energetika sohasida ham qarama-qarshilik emas, balki hamkorlikka asoslangan yondashuv kuchaydi. Qirgʻiziston va Tojikistondagi yirik energetika loyihalarida Oʻzbekistonning ishtiroki ana shu yangi mintaqaviy hamkorlik ruhining amaliy ifodasi boʻldi.

Yangi tashqi siyosat iqtisodiy munosabatlarga ham katta turki berdi. Qoʻshni mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar kengaydi, qoʻshma korxonalar soni ortdi, investitsiyaviy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Diplomatik munosabatlardagi iliqlik asta-sekin iqtisodiy hamkorlikka, iqtisodiy hamkorlik esa umumiy taraqqiyot manfaatlariga aylana boshladi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston tashqi siyosatining geografiyasi ham kengaydi. AQSh

Rossiya, Xitoy, Yevropa davlatlari va Yevropa Ittifoqi bilan bir qatorda Turkiya, Eron, Hindiston, Pokiston, Yaponiya, Janubiy Koreya hamda boshqa davlatlar bilan strategik va oʻzaro manfaatli hamkorlik rivojlandi. "Markaziy Osiyo plus" formatlari orqali mintaqaviy yirik davlatlar va xalqaro tuzilmalar bilan muloqotning yangi maydoniga aylandi.

Oʻzbekistonning BMT doirasidagi faolligi ham sezilarli darajada ortdi. Mamlakatimiz tashabbusi bilan qator muhim rezolyutsiyalarning qabul qilinishi Oʻzbekistonning xalqaro kun tartibini shakllantirishdagi ishtiroki kengayib borayotganini koʻrsatdi. Bu esa tashqi siyosatimizning faqat ikki tomonlama munosabatlari bilan cheklanib qolmayotgani, balki global va mintaqaviy muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuskor diplomatiyaga aylanayotganidan dalolat.

Mustaqil Oʻzbekistonning 35 yillik tashqi siyosat tarixi izlanish, tajriba, sinov va yangilanishlar davridir. Dastlabki yillarda asosiy maqsad dunyoda oʻz oʻrnini topish va mustaqil davlat sifatida tan olinish boʻlgan boʻlsa, bugungi bosqichda mamlakatimiz xalqaro munosabatlarda tashabbuskor, oʻz manfaatlarini ochiq ifoda etayotgan va mintaqaviy jarayonlarga taʼsir koʻrsatayotgan davlat sifatida namoyon boʻlmoqda.

Demak, mamlakatimiz tashqi siyosati yillar davomida oddiy tan olinish bosqichidan tashabbuskor va faol diplomatiya bosqichiga koʻtarildi. Bugun qoʻyliayotgan mustahkam poydevor esa mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqeini yanada yuksaltirish, milliy manfaatlarini ishonchli himoyalash va yorqin kelajak sari dadil qadam tashlash uchun xizmat qiladi.

Mahmudjon TOIROV, Oliy Majlis Senati aʼzosi.

DEPUTATLAR MASʼULIYATI VA FAOLLIGI OSHMOQDA



Yangicha tizimda xalq vakilining vakolati toʻxtasada, saylov okrugi va aholi manfaatlari eʼtibordan chetda qolmasligining muhim huquqiy yechimi topilgani ijobiy baholandi. Yaʼni agar deputatning vakolati muddatidan ilgari tugatilsa ham, tegishli komissiya tomonidan boshqa deputatning masʼul qilinishi orqali har bir hududning eʼtibordan

chetda qolmasligi taʼminlanishi aytiladi. Yangi tartib bilan deputatlarning vakolati kengaytirilayotgani, shu yil 1-avgustdan har bir deputat bir mavsumda ajratilgan 1,6 milliard soʻm doirasida "Ochiq byudjet" portalidagi bir yoki bir nechta loyihani qoʻshimcha qoʻlib deb eʼlon qilish imkoniyatiga ega boʻlishi urgʻulandi.

Joriy etilayotgan "50/50" sherklik formulasi boʻyicha aholi mobil ilovalar orqali

kerakli mablagʻning 50 foizini yigʻsa, qolgan 50 foizi avtomatik ravishda byudjetdan beriladi. Mablagʻ yetarlicha yigʻilmasa, 10 ish kuni ichida fuqarolarga toʻliq va xavfsiz qaytariladi. Shuningdek, hujjatlashtirish va korxona xarajatlari, QQS toʻlovlari aholi yiqqan puldan ushlanmaydi y bu xarajatlar toʻliq fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasidan qoplanadi.

Seminarda deputatlar axborot ochiqchiligi

eʼtibor qaratib, OAV va mahalliy hokimliklar bilan birgalikda gʻolib loyihalar va ajratilayotgan mablagʻlar haqida aholiga katta va mintazam axborot berib borish lozimligini qayd etdi.

Shu bilan birga, deputatlar oʻz okruglarida mablagʻlarning toʻgʻri va sifati sarflanishi ustidan qatʼiy parlament nazoratini amalga oshirish muhimligini taʼkidladi.

MAQSAD – SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi tomonidan "Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligi" doirasida "Suv resurslarini samarali boshqarish va sanitariya sohasida barqaror rivojlanish" mavzuida muloqot oʻtkazildi. Unda deputatlar, tegishli vazirlik va idoralarning masʼullari, Yoshlar parlamenti aʼzolari, olim va ekspertlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdilar.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda mamlakatimizda aholini toza ichimlik suvi bilan barqaror taʼminlash, ogqova tizimlarini yanada rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, tejamlor zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan koʻlamdori ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soʻnggi yillarda sohaga jalb qilingan sarmoyalarning hajmi 10 karra oshib, 2,7 milliard dollarga yetgan. Natijada aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan taʼminlanganlik darajasi 63 foizdan 82,8 foizga koʻtarilgan. Eng muhimi, ilk bor 5,6 million aholi markazlashgan ichimlik suvi bilan taʼminlanib, 13,9 million nafar fuqaroning bu boʻyicha taʼminoti yaxshilangan.

Shuningdek, oxirgi 8 yilda ichimlik suvi va ogqova suv infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion soʻmdan ortiq mablagʻ yoʻnaltirilgan. Bu orqali 36 ming kilometrdan ziyod tarmoqlar tortilib, 3,5 mingdan ortiq inshootlar qurilgan. Kelgusi yillarda esa ichimlik suvi taʼminotini 90 foizga, shaharlarda kanalizatsiya xizmati qamrovini 80 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Bugungi kunda respublikada mavjud 255 ta ogqova suv inshooti orqali 8,3 million aholiga xizmat koʻrsatilmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlariga asosan, 2030-yilgacha suv muhtinang ifloslanishini sezilarli darajada kamaytirish, ogqova suvlarni xavfsiz qayta ishlash va ulardan qayta foydalanish hajmini oshirish vazifasi belgilangan.

Ochiq muloqotda soha mutaxassislari tomonidan mavjud ogqova suv tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish, yangilarini barpo etish, energotejamkor texnologiyalarni qoʻllash hamda tozalangan ogqova suvlarni texnik ehtiyojlar va ayrim iqtisodiy tarmoqlarda qayta ishlash mexanizmlarini kengaytirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Markazlashgan kanalizatsiya tizimi mavjud boʻlmagan hududlarda esa zamonaviy lokal ogqova suv tozalash inshootlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalasiga urgʻu berilib, bunday inshootlar toʻgʻri loyihalalanishi va mintazam nazorat qilinishi yer osti suvlarining nitratlar va patogen mikroorganizmlar bilan ifloslanishining oldini olishda muhimligi taʼkidlandi.

Bekmirza ESHMURZAYEV, qoʻmita aʼzosi:

– Suv resurslarini samarali boshqarish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya-mellioratsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va sohani raqamlashtirish borasidagi ishlar natijasida suv tejovchi va raqamli texnologiyalar, agrotehnika tadbirlari hisobiga 2025-yilda 10 milliard kub metr suv iqtisod qilingan, joriy

yilda esa bu raqamni 11 milliard kub metrga yetkazish rejalashtirilgan.

Suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan maydon 2018-yilgacha 28 ming gektarni tashkil qilgan boʻlsa, 2025-yil yakuniga kelib 2,6 mln. gektarga yetgan. Shu yil 1-iyun holatiga yana 516,7 ming gektarda ushbu texnologiyalar qoʻllangan.

Tadbir davomida suv xoʻjaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, uning resurslarini aniq hisobga olish, isteʼmolni raqamlashtirish va tarmoqlardagi yoʻqotishlarni kamaytirish ustuvor vazifalar sifatida taʼkidlandi.

Muhokamarlar davomida ichimlik suvi va ogqova suv xizmatlari qamrovini oshirish, tejamlor texnologiyalarni hududlar kesimida keng joriy qilish, ajratilayotgan byudjet va investitsiya mablagʻlaridan samarali foydalanish, sohada raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish masalalariga ham alohida urgʻu berildi. Shu bilan birga, sanoat korxonalari tomonidan ogqova suvlar tarkibiga oid talablarga qatʼiy rioya etilishini taʼminlash, yer osti suv obyektlarini muhofaza qilish, aholi va tadbirkorlik subyektlari oʻrtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish zarurligi aytildi.

Yigʻilishda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 6-maqsadi ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, masʼul vazirlik va idoralar faoliyati natijadorligini mintazam tahlil qilish borish hamda joylardagi iro holatini oʻrganish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

UCHINCHI RENESSANS VA FUQAROLIK JAMIYATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qoʻmitasi tomonidan "Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki" mavzuida davra suhbatlari oʻtkazildi. Unda deputatlar, Oʻzbekiston Respublikasining Din ishlari boʻyicha qoʻmitasi, Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Yoshlar ishlari agentligi masʼullari, Qonunchilik palatasi fuqarolik fuqarolik jamiyati hamda OAV vakillari qatnashdilar.

Taʼkidlanganidek, Yangi Oʻzbekistonni barpo qilish jarayonida demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish ustuvor vazifalardan biri boʻlib qolmoqda. Bu jarayonda davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga "Fuqarolik jamiyati institutlari" deb nomlangan bobning kiritilishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yoʻlidagi muhim tarixiy qadam boʻldi. Ushbu bobning 69 – 75-moddalarida fuqarolik jamiyati institutlarining huquqlari, faoliyati va kafolatlari aniq belgilab berildi. Xususan, Asosiy Qonunimizning 69-moddasida fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlab qoʻyildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 9627 ta nodavlat notijorat tashkiloti, 9008 ta fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi, 2490 ta ommaviy axborot vositasi va 3 mingga yaqin turli jamoat tuzilmalari faoliyat yuritmoqda.

Tadbir davomida Uchinchi Renessans gʻoyasini amalga oshirishda parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining oʻzaro hamkorligini yanada kuchaytirish, qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, fuqarolik jamiyati institutlarining

Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdagi hissasini oshirishdagi huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Zafar XUDOYBERDIYEV, qoʻmita aʼzosi:

– Uchinchi

Renessans poydevorini barpo etish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, jamiyat taraqqiyoti, avvalo, fuqarolarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va mamlakat hayotidagi islohotlarga daxldorlik hissi bilan chambarchas bogʻliq. Mazkur tadbir esa sohadagi dolzarb masalalarni atroflicha muhokama qilish, oʻzaro fikr almashish hamda amaliy takliflarni

INNOVASIYALAR – TARAQQIYOTNING TAYANCHI

Bugunning kundalik voqe'ligi – sun'iy intellektdan sinfxonalarda, rektoratlar kabinetlarida va talabalarining qurilmalarida ham faol

Nuqtai nazar

Prezidentimizning “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorida mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish chora-tadbirlari belgilangan. Bu qaror hamda davlatimiz rahbarining tegishli Farmoni ta'lim tizimini raqamli asrga moslashtirish, o'qituvchi va rahbar kadrlar hamda bo'lajak mutaxassislarini yangi zamon talablariga tayyorlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatga molik.

E'tiborlisi ushbu muhim yo'nalish asosida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Xalqaro Nordik universiteti hamda AQShning nufuzli Rovani universiteti hamkorligida amaliy natijaga yo'naltirilgan malaka oshirish dasturi yo'lga qo'yildi. Umumiy hajmi 144 soatdan iborat malaka oshirish kursi ikki bosqichga bo'lingan: dastlabki 72 soat O'zbekistonda onlayn va gibrid tartibda, keyingi 72 soat esa bevosita Nyu-Jersi shtatidagi ilmiy-tadqiqot markazlarida tashkil etildi. Bunday yondashuv nazariy bilimni amaliy ko'nikma bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Kurs mazmuni to'qqizta modulni qamrab oladi – boshqaruv va strategik rahbarlikdan tortib, pedagogik metodikaning yangilanishigacha, sun'iy intellekt va kibernetika masalalaridan boshlab, virtual va kengaytirilgan texnologiyalarning ta'limga tatbiqigacha o'rganish nazarda tutilgan. Tinglovchilar barcha zamonaviy AI platformalarida amaliy mashq qilishdi. “Dreamscape Learn” tizimi asosida virtual simulatsiyalarni sinab ko'rdi, shuningdek, talabalar ma'lumotlarining daxlsizligini kafolatlovchi “FERPA” standartlari, akademik halollik va mualliflik huquqi masalalari bo'yicha chuqur bilim olishdi.

O'n kunlik amaliy dastur davomida har bir kun ikki qismga bo'lindi: e'tidalabki soatlar nazariya va strategiyalarga, tushlari keyingi vaqt esa amaliyot hamda muassasalarga tashriflarga bag'ishlandi.

Bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyot modeli inson kapitaliga tayangan iqtisodiyot barpo etishni ko'zlamda. Bu esa oliy ta'lim tizimi zimmasiga mutlaqo yangi vazifalarni yuklaydi. Universitet ilmiy g'oyalari, innovatsion ishlarni, texnologik yechimlar va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan strategik markazga aylanishi zarur.

So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron hukumatni takomillashtirish, axborot texnologiyalarini davlat boshqaruviga joriy etish hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan keng ko'lami huquqiy va institutsional asoslar yaratildi. “O'zbekiston – 2030” strategiyasida ham ta'lim sifati, ilm-fan, innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyot taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Xalqaro tajriba ahamiyati

Global raqobat endi bilimlar maydonida kechmoqda. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda sun'iy intellekt oliy ta'limni tubdan yangilash vositasiga aylanmoqda. AQSh universitetlarida guvohi bo'ldikki, AI yordamida individual o'quv trayektoriyalari ishlab chiqilmoqda, talabalar bilimni baholash avtomatlashtirilmoqda, ilmiy izlanishlar tezlashtirilmoqda, universitet boshqaruvi esa ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimiga o'tmoqda.

Finlyandiya sun'iy intellekt pedagogning o'rnini bosuvchi vosita emas, balki uning intellektual yordamchisi sifatida qaratiladi. Singapurda esa AI asosidagi adaptiv ta'lim tizimlari har bir o'quvchining qobiliyati va ehtiyojiga mos individual o'qitish modelini shakllantirmoqda. Janubiy Koreyada universitetlar AI laboratoriyalari va sanoat korxonalari o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Birlashgan Arab Amirliklari esa davlat boshqaruvida sun'iy intellektni rivojlantirish uchun alohida vazirlik tashkil etgan ilk mamlakatlardan biri bo'ldi.

Zamonaviy ta'lim tizimida professor-o'qituvchining shaxsiy salohiyati bilan bir qatorda, u faoliyat yuritayotgan universitetning rivojlanishiga qo'shadigan hisssasi ham asosiy mezonga aylanmoqda. Shu jihatdan qaralganda, “Ta'limda sun'iy intellekt: nazariya, liderlik va amaliyot” dasturi mazmun va natijadorligi bilan alohida ajralib turadi.

AQShda AI bo'yicha malaka oshirish dasturi ishtirokchilari Nyu-Jersidagi Sun'iy intellekt markazi (AI Hub) ga tashrif davomida innovatsiyalarni tizimli rivojlantirish modeli bilan tanishdi. Markazning asosiy vazifasi universitetlar, tadqiqotchilar va innovatorlarning istiqbolli g'oyalarni bir platformada jamlash, ularni muvofiqlashtirish hamda tayyor mahsulot va biznesgacha olib borishda har tomonlama ko'maklashishdan iborat.

Bu yerda kovorking maydonlari, mentorlik dasturlari, texnologik ekspertiza, investorlar bilan hamkorlik va tijoratlashtirish mexanizmlari yagona tizim sifatida ishlaydi. Natijada g'oyalari xalqaro bozorda raqobatlasha oladigan innovatsion mahsulotga aylantiriladi. Bunday tajribalar sun'iy intellekt sohasida ta'lim, ilm-fan va biznes hamkorligini mustahkamlash, innovatorlarni qo'llab-quvvatlash hamda yangi texnologik yechimlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prinston universiteti hamkorligida faoliyat yuritayotgan ushbu innovatsion markazda ishtirokchilar Alni boshqarish va innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlari, zamonaviy “data center”lar faoliyati hamda ularning sun'iy intellekt rivojida ahamiyati bilan tanishdi. AI infratuzilmasini boshqarish bo'yicha interfaol

foydalanilmoqda. Bu texnologik o'zgarishlarning old safida bo'lish yoki uning ortidan ergashish esa har kimning o'ziga bog'liq. Zotan, eng tezkor va qulay, insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid va natijalarni taqqoslash imkonini beruvchi texnologik yechimlar majmui bo'lgan sun'iy intellektni o'zimizga xizmat qildirishni tanlar ekanmiz, uning yutuqlarini amaliyotga qanchalik tez tatbiq eta olsak, shunchalik samaradorlikka erishamiz.

va roli mashg'ulotlarda universitet, sanoat va davlat hamkorligining samarali modellarini amaliy misollar orqali o'rgandi.

66 million yil ortga sayohat

Rovani universiteti huzuridagi “Edelman Fossil Park & Museum”da bo'lganimiz malaka oshirish dasturining mazmunli yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Muzeyda paleontologiya, geologiya va ekologiya yo'nalishlari zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilib, tashrif buyuruvchilarni dinozavrlar davriga olib kirdi. Undagi interfaol ekspozitsiyalar, to'liq o'lchamdagi dinozavr maketlari, virtual reallik texnologiyalari hamda qazilma topilmalari ilmiy bilimlarni amaliy tajriba bilan boyitdi.

Bu tashrif ishtirokchilarga dunyoning il-g'or ilmiy va ta'lim muassasalari faoliyati bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Mazkur dastur



ishtirokchilarga sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishni o'rgatish bilangina cheklanmaydi. Asosiy e'tibor har bir oliy ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta shakllantirishga qaratiladi. Boshqacha aytganda, kurs tinglovchini yangi bilim egasiga emas, balki o'z universitetida transformatsiya jarayonlarini boshqarishga qodir yetakchiga aylantirishni ko'zlaydi.

“Action Plan” – bilimning amaliy natijaga aylinishidir. An'anaviy malaka oshirish kurslaridan tinglovchi yangi bilim bilan qaytadi. Ammo bu bilimning universitet faoliyatida qanday natija berishi ko'pincha nazorat qilinmaydi. Mazkur dastur esa aynan shu kamchilikni bartaraf etuvchi yondashuvni taklif qiladi. Har bir ishtirokchi kurs yakunida o'z oliy ta'lim muassasasi uchun sun'iy intellektni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha aniq harakatlar rejasini ishlab chiqib, ushbu hujjatda universitetning mavjud salohiyati tahlil qilinadi, ustuvor yo'nalishlar belgilanadi, amalga oshirish mexanizmlari va natijadorlik mezonlari ko'rsatiladi. Bu esa sun'iy intellektni joriy etish jarayonini uzoq muddatli strategik rivojlanish dasturiga aylantiradi.

Texnologiyadan madaniyat sari

Har qanday yangi texnologiya bilan bir qatorda xavflar ham yuzaga keladi. Akademik halollikni ta'minlash, mualliflik huquqini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini saqlash va kibernetika xavfsizlikni mustahkamlash sun'iy intellektni joriy etishning ajralmas qismidir.

Shu bois dasturda AI etikasi alohida modul sifatida o'qitildi. Ishtirokchilar xalqaro tajriba asosida universitetlarda mas'uliyatli foydalanish siyosatini ishlab chiqish, ichki me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish va akademik halollik tamoyillarini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalari yaratdi. Bu esa texnologiyalarni joriy etishda inson manfaatlarini, adolat va ishonch tamoyillarini ustuvor saqlashga xizmat qiladi. Dastur bo'yicha faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanilmadi. Tinglovchilar AQShning sun'iy intellekt va innovatsiyalar bo'yicha yetakchi markazlariga tashrif buyurib, ilm-fan, sanoat va davlat boshqaruvi o'rtasidagi hamkorlikni amalda kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bu tashriflar shuni anglatdiki, zamonaviy universitet alohida faoliyat yurituvchi ta'lim muassasasi emas, balki innovatsion ekotizimning ajralmas bo'g'inidir. Aynan ana shunday yondashuv O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham il-fan, ishlab chiqarish va davlat boshqaruvi integratsiyasini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu ma'noda, “Ta'limda sun'iy intellekt: nazariya, liderlik va amaliyot” dasturi nafaqat yangi bilimlar manbai, balki Yangi O'zbekiston universitetlarini xalqaro raqobatga tayyorlaydigan transformatsiya platformasi sifatida alohida e'tiborga loyiq. Zero, bugun “raqamli iqtisodiyot”, “katta ma'lumotlar”, “sun'iy intellekt”, “aqlli boshqaruv”, “innovatsion universitet” kabi tushunchalar ilmiy muomaladan davlat siyosatining markaziga ko'chmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Bugungi zamon shiddat bilan o'zgarmiqda. Kim ilm-fan va innovatsiyani egallasa, kelajak ham o'shaniki bo'ladi.” Mazkur g'oya Yangi O'zbekiston taraqqiyot falsafasining ustuvor yo'nalishiga aylanadi.

Sun'iy intellektni ta'lim tizimiga joriy etish bugungi kunning navbatdagi texnologik talabi emas. Bu Yangi O'zbekistonning intellektual salohiyatini yuksaltirish, global ilmiy maydondagi raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan uzoq muddatli milliy strategiyadir.

Odil QO'YSINOV,
Xalqaro Nordik universiteti prorektori,
professor.

YUTUQLARIMIZ KO'ZGUSI

Qatnashchilar markaz bilan tanishar ekan, O'zbekiston zaminini azaldan ilm-fan va ma'rifat beshigi bo'lib kelganini, bu yurtidan yetishib chiqqan buyuk allomalarning merosi butun insoniyat taraqqiyotida beqiyos o'rin tutishini e'tirof etdi. Ayniqsa, tarixiy merosni asrab-avaylash, uni chuqur o'rganish va kelajak avlodga yetkazish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuksak baholandi.

Osman MESTEN,
Turkiya Buyuk millat majlisi deputati, “Turkiya – O'zbekiston” do'stik guruhi hamraisi:

– O'zbekiston mustaqillik yillarida katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida so'nggi o'n

yilda amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlar hamda ta'sirchan tarzda namoyish etildi.

Ko'rgazmadagi mazmunan boy va ta'sirchan fotolavhalar mehmonlarda katta taassurot qoldirib, mamlakatimizda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar,

yangilanish va bunyodkorlik jarayonlarini yanada yaqqol his etish imkonini berdi. Ayniqsa, islohotlarning inson manfaatini va farovonligiga qaratilgan amaliy natijalari mehmonlar tomonidan yuksak baholandi.

texnologiyalar, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa muhim sohalarda ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zbekistonning boy sivilizatsion merosini dunyoga keng namoyish etish borasidagi ishlar ham alohida e'tirofga loyiq.

So'nggi o'n yil Turkiya – O'zbekiston munosabatlarida ham yangi davrni boshlab berdi. Prezident Rejep Tayyip Erdog'an va Prezident Shavkat Mirziyoyev o'rtasidagi o'zaro ishonch hamda samimiy do'stlik parlamentlararo hamkorlik rivojiga ham kuchli turki bermiqda.

O'zbekiston turkiy dunyo va islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bugun qardosh O'zbekiston buyuk tarixiy merosiga tayangan holda, keng ko'lami islohotlar orqali o'zining yangi taraqqiyot tarixini yaratayotir.

“Xalq so'zi”.
Yunus BO'RIYEV olgan suratlar.

YOZYOVONDA YANGI KORXONA

Yozyovon tumanida xitoylik hamkorlar bilan sheriklikda yiliga 30 ming tonna baliq yemi ishlab chiqaradigan korxona faoliyat boshladi. Loyiha doirasida 10 mln. dollar investitsiya kiritilib, 40 ta yuqori daromadli ish o'ri yaratildi.

Imkoniyat

Korxonada ishlab chiqarilgan dastlabki mahsulot shu kunlarda mamlakatimiz bo'yali baliqchilik xo'jaliklariga jo'natildi.

– Bu yerda kuniga besh turdagi 80 tonna mahsulot tayyorlanadi, – deydi korxona ish boshqaruvchisi Jasurbek Ilromjonov. – Tabiiy darmondor ilorlarni bo'y mahsulot tarkibida un, soya, kungaboqar, guruch va makkajo'xori kabi ozuqa moddalari bor. Ushbu yem suv yuzasida uzoq muddat saqlanishi bois ko'lmaydi va foydali ozuqa sifatida yuz foiz

iste'mol qilinadi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoda mazkur yo'nalishda yagona bo'lgan korxonada baliqlar uchun maxsus vitaminli, dorilangan, antibakterial hamda turli parazit kasalliklariga qarshi ozuqalar ishlab chiqarilmoqda.

Aytish joizki, mazkur tarmoq Yozyovon tumani drayverlaridan biri bo'lib, bugun 94 ta ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligi tasarrufida 2050 gektar baliqchilik havzasi va ko'l mavjud.

Botir MADIYOROV
 (“Xalq so'zi”).

FUTBOL

xabarlari

NAVBATDAGI OSIYO KUBOGI MEZBONI – O'ZBEKISTON

Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida o'tgan Osiyo futbol konfederatsiyasining Ijroiya qo'mitasi yig'ilishida 2027 – 2029-yillar davomida turli yosh toifalaridagi Osiyo kubogiga mezbon davlatlar nomi tasdiqlab olindi.

Qarorga ko'ra, O'zbekiston 2027-yil “U17” yosh toifasidagi Osiyo kubogini qabul qiladi. 2028-yilgi “Los-Anjeles – 2028” yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma beruvchi “U23” Osiyo kubogi Yaponiyada tashkil etiladi. 2029-yilda uyushtiriladigan “U17” Osiyo kubogi bahslari Saudiya Arabistonida o'tkaziladi.

Shuningdek, yig'ilishda Osiyo Elit chempionlar ligasi 2026/2027-yilgi mavsumdan e'tiboran 32 jamoalik formatda o'tkazilishi ma'lum qilindi.



RAHMONALIYEV JAMOASI MUVAFFAQIYATLI ODIMLAMOQDA

O'zbekiston milliy terma jamoasiga nomzod Umarali Rahmonaliyev o'ynatog'chi O'zbekistonning “Sabax” klubi Yevropa Elit chempionlar ligasi saralash turnirining uch bosqichidan muvaffaqiyatli o'tib, play-offga yetib keldi.

Bokuliklar uchinchil saralash bosqichi javob uchrashuvida Daniyaning “O'xus” klubi ustidan 4:0 hisobida g'alaba qozondi. Raqib maydonida o'tgan birinchi uchrashuvda “Sabax” raqibga 1:2 hisobida yutqazgan edi.

“Azerisport.com” nashri xabariga ko'ra, Boku klubi play-off bosqichida Isroiling “Xapoel Beer-Sheva” jamoasini mag'lub etib, Chempionlar ligasining asosiy bosqichiga yo'llanma olsa, kamida 18 620 000 yevro ishlab oladi. Yurtdoshimiz U. Rahmonaliyev joriy mavsum “Sabax”ning barcha oltita uchrashuvida ham maydonga tushdi va jamoasining asosiy figuralaridan biri bo'ldi.



TAYYORGARLIK DOIRASIDAGI TURNIR

Kelgusi yilda Saudiya Arabistonida o'tkaziladigan Osiyo kubogi bahslariga tayyorgarlik ko'radigan O'zbekiston milliy terma jamoasi Basra (Iroq) shahridagi musobaqada ishtirok etishi mumkin.



Mamlakat futbol assotsiatsiyasi matbuot kotibi Muhammad Imad bu haqda ma'lumot berdi. “Biz Eron, O'zbekiston va Iordaniya terma jamoalariga taklifnoma yubordik va uchala jamoadan javob kutmoqdami. Osiyo kubogiga tayyorgarlik ko'rish uchun asosiy e'tiborni Osiyo terma jamoalariga qaratganmiz”, deb ta'kidlab o'tgan Imad.

Mazkur kichik turnir FIFA kunlari doirasida 9 – 17-noyabr kunlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

“SURXON” TRANSFERDAN QANCHA PUL ISHLADI?

Termizning “Surxon” klubi himoyachi Behruz Karimov Shveysariyaning “Lugano” klubiga transfer qilinganidan xabaringiz bor.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, “Lugano” mazkur transfer uchun “Surxon”ga 250 ming yevro to'laydi. Surxondaryo viloyati bosh jamoasi tayyorgarlik kompensatsiyasi uchun yana taxminan 200 ming yevro oladi. Bundan tashqari, Termiz klubi B. Karimovning keyingi sotuvining 10 foiziga ega chiqadi. Ya'ni Behruz “Lugano”dan boshqa klubga, aytaylik, 10 million yevroga sotilsa, “Surxon” hisob raqamiga yana 1 million yevro tushadi.

Sunnatilla ISLOMOV
 (“Xalq so'zi”) tayyorladi.

Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida milliy hunarmandchilik va noyob kashtachilik san'atini keng ommalashtirishga bag'ishlangan uch kunlik “Iroqi” xalqaro kashtachilik festivali bo'lib o'tmoqda.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'kir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.20 Topshirildi – 02.25 **1 2 3 4 5 6**